

AL XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

302-GURUH TALABASI XOLBOYEVA DURDONANING

«MANBASHUNOSLIK»

FANIDAN

Mavzu: *SALOHIDDIN TOSHKANDIYNING*

“TEMURNOMA” ASARI MANBA SIFATIDA.

РЕФЕРАТ

Qabul qildi:

Matyaqubova M.

Urganch 2010

MAVZU: SALOHIDDIN TOSHKANDIYNING
“TEMURNOMA” ASARI MANBA SIFATIDA.

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM.

1.Salohiddin Toshkandiy hayoti va ijodi.

2.“Temurnoma” asari

3.Asarda Amir Temur va uning avlodlari haqida.

III. XULOSA.

IRISH.

Amir Temur tarixini o'rganishda juda ko'p manbalardan foydalanamiz, ko'p manbalarda bobomiz Amir Temur haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Lekin har bir manbada Amir Temur haqida turlicha ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Jumladan Nizommiddin Shomiyning "Zafarnoma", Mirhondning "Ravzat us-safo", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Arabshohning va Klovixonning asarlarida keltirib o'tilgan bo'lsada, bu asardagi voqealar va fikrlar bazida bir- biriga to'g'ri kelmaydi.

Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asari garchi jangari asar bo'lsa ham, Amir Temur haqida aniq ma'lumotlar keltirib o'tiriladi. Salohiddin Toshkandiy yana "Kitob ul – ahbor", "Tarixi Tabariy", "Iskandarnoma", "Qissasul anbiyo" asarlaridan ham foydalangan.

"Temurnoma" badiiy asar bo'lsa ham Temur tarixini o'rganishda manba sifatida foydalanamiz.

1. Yurtimiz tarixini o'rganishda "Temurnoma" noyob asarlardan biri desak xato bo'lmaydi. Bu asar Mulla Salohiddin Ibn Mulla Alouddin Xoja qalamiga mansubdir.

"Temurnoma" asarini o'rganar ekanmiz, asar muallifi haqida to'xtalib o'tsak.

Mulla Salohiddin uzoq vaqtlar davomida nomalum muallif bo'lib keldi. Uning qalamiga mansub asarni mutaxassislar bilmagan deya olmaymiz. Turli sabablarga ko'ra bilib bilmaslikka olish bu xildagi asarlarga bo'lgan munosabatning bir shulasi edi.

Shu boisdan asar va uning muallifi haqida shu vaqtga qadar biron bir manbada fikr yuritilmadi. Holbuki muallif XIX asrning oxirlarida voyaga yetgan. Toshkentda yashab ijod qilgan. Bu vaqtda Toshkentning asosiy madaniy markazi bo'lib qolganligini ta'kidlash ortiqcha. Afsuski Salohiddin Toshkandiy haqida yetarlicha malumotlar mavjud emas. Uning haqida faqat "Temurnoma" orqaligini fikr imkoni bor. "Temurnoma"ning badiiy saviyasiga qarab baho beradigan bo'lsak muallif o'z davrining peshqadam ziyolisi, teran fikr sohibi bo'lganligi qayd etish lozim bo'ladi, Salohiddin Toshkandiyning diniy ilmlar bobida yetukligi asaridan yaqqol ko'rinib turadi. "Temurnoma" da yozilgan she'rlar orqali uning yaxshigina shoir ekanligini ham takidlash lozim. Chunki bu asarda berilgan 1030 misra she'rning asosiy qismi Salohiddin Toshkandiy qalamiga mansubga o'xshaydi. Bunday deyishga asoslar bor. Muallif kimdan she'r keltirmoqchi bo'lsa albatta shoir nomini tilga oladi. Masalan, Kamol Ho'jandiy, Shayx Sadiy, Said Ahmad, Imom Hofiziddin Buxoriy, Xo'ja Abdulloh Hotifiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va Xo'ja Ismatilla Buxoriy she'rlari turli munosabatlar bilan keltirilgan.

Amir Temur va uning o'g'illari Mirzo Shohrux, Mironshox, Shoh Shujod- Shayh ul – a'lam va boshqa tarixiy shaxslarning nomidan keltirilgan she'rlar shubhasiz Salohiddin Toshkandiyning o'zining ijodi. Salohiddin Toshkandiyning bilim doirasi qamrovi juda keng ekanligini etirof etish kerak.

2. “Temurnoma” asari jangnoma asar bo’lib, unda Amir Temurning o’zga yurtlarga qilgan yurishlari va jangu jadallari haqida yozilgan asardir. “Temurnoma” 3 yo’nalishdagi asarlarning oxir oqibatda badiiy majmuasi sifatida maydonga kelgan. Kitobni yaratishda eng avvalo tarixiy asarlardan jumladan, “Kitob ul-ahbor” , “Tarixi Tabariy”, “Zafarnoma” singari, badiiy asarlardan esa “Iskandarnoma”(A.Xotifiy) va diniy asarlardan “Abo Muslim”, “Qissasul anbiyo” kabi asarlardan foydalangan.

Salohiddin Toshkandiy tarixni mukammal biladi.Xalqimiz hayotining eng nozik eng qaltis eng murakkab davri bo’lgan XIV – XV asrlarning shu davr uchun bosh mavqeni o’ynagan shaxs hayoti misolida yoritish, tabiiyki oson ish emas.

Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma”ni bir necha qardoshlarning iltimosi bilan turkiy tilda tartib bermoqqa qo’shish qo’ganligini ta’kidlaydi.Muallif “Temurnoma”ni dastlab boshdan oyoq she’riy yo’lda yoritmoqchi bo’lgan. Chamasi do’stlarining istak hohishi bilan asarni nasriy o’zanga burgan. Nazmiy asarlarni tushinish murakkabligi ehtimol shu yo’lni taqazo qilgandir.Salohiddin mo’g’ul hukmdorlarining kam ma’lum bo’lgan ammo asl qiyofasini ochib beradigan jihatlarini topib, qalamga oladi. Masalan, “Tarix yetti yuz yigirmada Qozonxonkim, andog’ zolim erdiki ,har kishini talab qilsa, avval xotun va bolalarga vasiyat qilib, andin keyin Qozonxonning oldiga borur erdi” detiladi bir o’rinda. “Temurnoma”da ikki yo’nalish chizig’i muvoziy davom etadi.¹ Bulardan biri- tadrijiy, biri- tanazul chizig’i. Tadrij – bolakay Temurning hayotini tavsiflasa, tanazul –

¹ Salohiddin Toshkandiy. “Temurnoma”. –T. “Cho’lpon”. 1990 y.

mug'ol hukumdorlarning jirkanch turmushini tasvirlaydi. Asarda yana bir islom va uning vakillari haqida hikoya qiladigan o'zan borki u hamisha bir meyorda oqadi. Aytish o'rinliki islom dini mug'ullar istibdodi quturgan yillarda ham puturdan ketmagan, aksinch siyosatda, bosqinchilar fa'atvoriga tasir o'kazib turgan. Asarda mo'g'ul feodallarning islom diniga kirishini aytib o'tadi. "Temurnoma"da ana shularni mukammal talqin etiladi. Bu amir Tarag'ay Muhammadning Buxorolik Sadar ash Shariyatning qizi Tegin Begim Moh (Takinaxotun) ga uylanishi, Bayonqulixonning xon ko'tarilishi, Dashti Qipchoqning islom dinini qabul qilishi, xullas biron bir voqya yo'qqi, unda din vakillari ishtirok etmasa. Bu islom dinimizning mavqeyini oshirib ko'rsatish emasmi, degan Masalan, tarixiy manbalarda Hirotning fath etilishi shayx Tayobodiyga bog'laydi. Amir Temur hujum oldidan shayxning madadiga umid bog'lab uning huzuriga boradi o'rta asir musulmon sharqida bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emasdi. Mo'g'ullar chamasi bu haqiqatga o'z saltanatlarining so'ngida ishonch hosil etgan shu sababli musulmonlikni qabul qilganlar.

"Temurnoma" ananaviy hamddan boshlanadi so'ngra Mavaraunnahrda hukm surgan sulola tilga olinadi. Asosiy qism yani boblar soni 47ta "Temurnoma" ilmiy manba yoki tarixiy asar emas, "Temurnoma" eng avvalo badiiy asar. Badiiy asar bo'lganda ham bir necha forsiy manbalar asosida bitilgan deyish mumkin. Shu boisdan asarni tarjima deyish bir yoqlama bo'lib chiqadi chunki u mutlaqo erkin ijodiy yozilgan. Shu bilan birga

voqeya hodisalarni dalillashda tarixiy manbalarga murojat etilgan o'rinlar ko'p. Bu hol asarda boshdan-oyoq davom etadi.

“Temurnoma” ko'p jihatdan, ayniqsa qamravi, etibori bilan “Boburnoma”ga “Qissas ul-anbiyo”ga ancha yaqin turadi. “Boburnoma” uchun ham tarixiylik, ham badiylik nechog'li xos bo'lsa, unda ham shu fazilat bo'rtib turadi. “Qissas-ul anbiyo” da payg'ambarlik va oddiy insonlik nechog'li qo'shilib, uyg'unlashib talqin etilgan bo'lsa, “Temurnoma”da ham holni ko'ramiz.

Ana shularga asoslanib “Temurnoma” ni bir tarixiy-badiy kitoblar umumlashtirgan yangi asar deyish to'ri bo'ladi.

3. Mullo Salohiddin Toshkandiy “Temurnoma” asarini yozar ekan A.Temur hayotini aniq dalillar bilan yozishga harakat qilgan. Garchi asar jangari asar bo'lsa ham juda aniq faktlar keltirilib o'tadi.

Adib Amir Temurning tug'ulgandan to o'lgungacha bo'lgan voqealarni yozib qoldirgan. Uning bolalik yillari hokimiyatga kelishi va qo'shni davlatlar ustuga qilgan yurishlarini uning avlodlari haqida ham asarda keltirib o'tgan.

XIII asrning birinchi choragida bosib olingan O'rta Osiyo mo'g'ul bosqinchilarining oyogi ostida xo'rlanayotgan edi.

Movaraunnahr Chingizxonning o'g'illaridan Chig'atoyning Suyirg'ol mulkiga aylantirilgan. Qariyb bir yarim asrdan buyon uning urug' aymoqlari bu o'lugning qonini zulukdek so'rmoqda edi. Chig'atoy ulusi ham 1340 yillarda 2 ga bo'linib ketadi

Movaraunnahr va Yettibuvga.²

Chig'atoy avlodlaridan bir-biri bilan toju –taxt o'rtasida janglar boshlanib ketadi.

Mo'g'ul feodallarining o'zaro nizolari noroziligini ko'pdan buyon ichiga yutub kelayotgan turkiy aholining nufuzli vakillariga ta'sir qilmasligi mumkin emasdi.

Buning ustiga, garchi pinhona bo'lsada Xuroson bilan aloqa o'rnatilgan.

Sarbodorlarning ozodlik kurashi alangasi ularning zulmat og'ushida qolib kelayotgan vatanga ham uchqun sachrata boshlagan edi.

1358 yilda amir Abdulloh ibn Qozog'onga qarshi kurash boshlagan. Mo'g'ul amiri Bayon Suldur yonida turkiy aholining yetakchilaridan biri amir Hoja Barlas ham bo'lgan. Bu o'sha Kesh viloyatining hokimi. U Amir Temurning amakisi bo'lgan. Bu paytda Bayon Sulduz va Hoja Borlos g'alaba qilib Mavaraunnahrda o'z hukumronligini o'rnatdilar. Hoja Borlos esa Shaxrisabz va Qarshi hokimyatini qo'lga kiritdi. Sharqiy Turkistonga xolik qilayotgan Tug'luq Temur 1359-yilda Mavaraunnaxrga qarshi yurish qildi.

Tarixiy asarlarda Amir Temurning Shahrisabzda o'z hokimiyatni qanday yo'l bilan saqlab qolganligi sabablari noma'lum deb ko'rsatiladi. Tarixning qizik bir tuguni shundaki, Movara-unnahrda osoyishtalik qaror topib, To'g'luq Temur qaytib ketgandan so'ng, oradan bir yil o'tar-o'tmas amir Hoji Barlos yana SHaurisabzga kaytib

² Salohiddin Toshkandiy. "Temurnoma". –T. "Cho'lpon". 1990 y.

keladi. Fosix Xavofiy ochiqdan-ochiq e'tirof qilganidek, u yana uokimiyatni boshqirishdan umidvor bo'lib kelgin edi. Amir Temur o'z xalqiga xos jo'mardlik ko'rsatadi: yuzi shuvit amakisi Hoji Barlosni darvozadan kiritmaslik o'rniga, Kesh hukumatini unga beradi.

Amir Temur ayrim ilmiy manbalarda 1360 yil taxtga chiqqan, deb ko'rsatiladi. XV asrga oid tarixiy asarlarda bunday ta'kidlarga duch kelish mahol. Tarixiy kitoblarda Amir Temurning Movarounnahr taxtini rasman qo'lga olish yili sifatida 1370 yil qayd etiladi va bu muzaffariyat Balxda yuz berganligi aytiladi. Haqiqatda amir Husayn ibn Musallabni engib, qo'li baland kelgan Amir Temur jami akobirlar, qo'shin boshliqlari tomonidan Movarounnahr hukmdori deb tan olingan edi. Binobarin, Amir Temur hozirga qadar aytib kelinganidek, yigirma to'rt-yigirma besh yoshida emas, o'ttiz to'rt-o'ttiz besh yoshida taxtga chiqishga erishgan.

Amir Temur ibn Tara^g'ay Muhammad bahodir hijriy 736 sich-kon yilida, sha'bon oyining 25 kunida (1336 yil, 8 aprel) Shahrisabzdan o'n uch chaqirimcha keladigan Xo'ja Ilgor qishlogida tug'iladi. Uning otasi amir Tara^g'ay bahodir davlatmand kishi bo'lib, Bayonqulixon saltanatida katta mavqe tutgan.

Amir Temurning onasi Takina xotun (Tegina Begim Moh) bo'lgan. Fosih Xavofiy Amir Sohibqironning shajarasini shunday ko'rsatadi: Amir Temur ko'ragon ibn amir Tara^g'ay ibn Barkal ibn Ilangiri Ijlil ibn Qorajor no'yon ibn Suku Sijon ibn Irimxi ibn Qojulay no'yon ibn Tumanayxon ibn Boysung'ur xon ibn Qayduxon ibn Dutam ibn Mannan ibn Bo'xn ibn Bug/anjir ibn Amt Tava xotun. Amir Temurning

o'z dushmanlariga nisbatan tutgan siyosatini bir yoqlama baxolash noto'g'ri.

U xoinlikni kechirmagan, xalqqa zulm qiluvchi xukmdorlarni ayovsiz jazolagan. SHu bilan birga tinchlik, omonlik istagan yurt egalarini xar tomonlama qo'llab-quvvatla-gan, ularni siylagan. 1370 yildan to 1404 yilga qadar qariyb 30 marta qo'shin tortgan Amir Temurning xamma vaqt ko'li baland keldi.

Fosix Xavofiy asaridagi qisqa satrlar ortida ming-minglab taqdirlar turadi. Masalan, Nishopur uchun bo'lgan jangni esga olaylik. Tarixchi olim bu uaqda bir ogiz so'z aytgan. xolos. «Temurnoma» muallifi esa Nishopurni qo'lga kiritish Amir Temur uchun qanchalik mashaqqatli bo'lganligini, xatto o'zining xalokat yoqasiga kelib qolganligini ishonchli chizgilar orqali tasvir etadi.

Avlodlar yillar, asrlar o'tgan sari o'z yurtiga ozodlik baxshida etgan. O'rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatni qaror topdirgan, birgina nomining o'zi jahonning ko'pgina xukmdorlarini zirqiratgan Amir Temurga qiziqish bilan qaraganlar. Uning haqida qanchadan-kancha rivoyatlar to'qilgan, asarlar bitilgan. Zamonaning zayli bilan osori atiqalarning faqatgina Amir Temurni mazax qiladigan nuqtalarigina tanlab olingan. Amir Temurning hayoti, siyosiy va jangovar faoliyati hakida hikoya qiluvchi kitoblar «unutilgan». SHulardar biri Mullo Salohiddin eshon ibn Mullo Alouddin xoja eshon qalamiga mansub «Temurnoma» («Jangnomai Amir Temur ko'ragon») asaridir. Bu xaqda muallifning o'zi shunday deydi:

U Tarixning bir ming uch yuz yigirma ettisida (1908 yil), tovuq

yilida Toshkand mamlakatlik ahqarulabad Mullo Salohiddin xoja ibn Mullo Alouddin xoja eshon ayturkim, bu «Temurnoma»-ni bir necha qardoshlarni iltimosi birla turkiy tilida tartibbermoqqa ko'shish qildik».

«Temurnoma» an'anaviy hamddan boshlanadi. So'ngra Movaro-unpahrda hukm surgan sulolalar tilga olinadi. Asosiy qism — dostonlar (muallif boblarni shunday ataydi) soni 47 ta.

Movaraunnahrda hukm surgan shohlar haqida yo'l-yo'lakay so'z yuritilgach, «Emdi kelduk dostoni Amir Sohibqironga, ya'ni Amir Temur ko'ragon Iskandari soniyga» deb ilk bob boshlanadi. Bu qismda Amir Temurning shajarasi beriladi. Bu shajara Fosih Xavofiydagidan farqli o'laroq, oxir-oqibatda Alan Quva xotunga olib birib taqalmaydi: Amir Temur ibn amir Tara^g'ay bahodur ibn Barqul baxodur ibn Ilon^giz baxodur ibn Injil baxodur ibn Qorajor no'yon ibn amir So'^gichin ibn Berdiquxon ibn Yrimchi Zalosxon ibn Qojuvli baxodur ibn Tarbonxon. Bu bob qolgan qirq olti fasl uchun rejaviy yo'nalishga ega.

Salohiddin Toshkandiy «Temurnoma»ni bitar ekan, o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan shaxsga bemisli xurmat bilan yondoshadi. Bu bejiz emasdi, muallif Amir Temurning xalqi oldidagi xizmatini bosqinchi xonlarni «Samarqanddin ixroj qilishda» deb tushunadi. Ana shu g'oya keyingi dostonlarda Amir Sohibqironning o'ttiz-o'ttiz besh yillik kurashi orqali badiiy jonlantiriladi.

«Avvalgi doston: hazrat Amir Temur Sohibqironni onalaridin tug'ulmoqlarini bayoni»da Buxoro Sadr ash shari'atining qizi Tegin

Begim Moh bilan Shahrisabzlik amirzoda Tarag'ay Muxammad nikohi, bu ishda ulamolar, islom peshvolarining bosh-qosh bo'lishi hikoya qilinadi.

Qadim zamonlardan Buxoro va Shahrisabzda yashovchi turkiy aholi quda-anda bo'lib kelgan. Tarag'ay Muxammad bilan Tegin Begim Mohning topishuvi xam odatdagi aqidalardan biri edi. Biroq, bu hikoyadan keyinchalik jahonni titratgan o'gil tug'ildi. SHayx ul a'lam Sayfuddin shunday bo'lishini oldindan bilgan. Amir Temur tug'ilmasdan burun unga «Sohibqiron» laqabini ham u bergan. . Tegin Begim Moh amir Tarag'ay Muhammadga nikoh qilingach, amir Qozagon bu ishga aralashadi. Dostonda Tegin Begim Mohga talabgor bo'lgan amir Qozagon taqdiri SHayx ul a'lamning aralashuvi bilan osongina hal qilingan deb ko'rsatiladi.

Amir Qozag'n bilan Tarag'ay Muhammad — qaynota va kuyov. Amir Qozngonning qizi Yo'qun Begim Tarag'ayning birinchi xotini Amir Qozag'onning Tegna Begim Mohga uylanishi qalb amiri emas balki mo'g'ul amirlari bilan xisoblashilmay, bu ish amalga oishrilganligi uchun, uning izzat-nafsiga tegadi. Yo'qun Begim ham o'z navbatida Tegin Mohga qo'lidan kelgan barcha yomonlikni qiladi. Tegin Begim Moh boshiga tushgan

Yo'qun Begim amir Tarag'ayning Qashg'arga ketganidan foydalanib, Tegin Begim Mohni o'ldirish payiga tushadi. Bunga sabab, uning tushida Tegin Begim Mohdan tug'ulajak o'gil sohibqiron bo'lishi, yer yuzini olishi ayon bo'ladi. Tegin Begim Mohga otasi nomidan qalbaki xat qildirib, uni Buxoroga jo'natadi.

Amir Qozag'ondan qolgan quli Moydunga Tegin Begim Mohni yo'lda o'ldirshi topshirig'ini beradi. Qornida olti oylik homilasi bo'lgan Tegin Begim Moh o'lmay qoladi.

Buxoroga, kasal yotgan otasini ko'rish uchun (Yo'qun Begim shu hiylani o'ylab topgan edi) yo'lga chiqqan Tegin Begim Moh qaysi yo'lni tanlashi mumkin edi? Bu o'rinda taxminlar bor. SHiurisabz — Buxoro yo'li Qarshi orqali ham, shuningdek, Miyonkol orqali ham o'tgan. Shahrisabzliklar ko'pincha ikkinchi yo'lni tanlaganlar. Zanjir Sara o'rni xam Kattaqo'rgon — CHiroqchi oralig'ida bo'lgan, deb o'ylash mumkin. Amir Temurning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganligi rasmiy tan olingan. Bu, shubhasiz, uning ota avlodi yashab kelgan joy. Salohiddin Xoja Zanjir Sara xaqidagi rivoyatni nimaga asoslanib keltirgan, aytish qiyin. Lekin bir narsani ishonch bilan aytish kerakki, Sharq tarixnavisligida, badiiy ijodiyotida nabilar, payg'ambarlar, sultonlar u yoqda tursun, to'qima shohlar obrazi yaratilganda yoki ular haqida gap borganda, albatta. ularning taqdiri azaldan belgilab qo'yilganligi, ilohiy qudrat yorlaqaganligi tavsif etiladi. Bu an'ana «Temurnoma»ni ham chetlab o'tmagan.

Temur — otasining yolgiz o'gli. Ota-o'gil o'n ikki yildan so'ng topishadilar.

Temurning peshonasiga sohibqironlik bitilgan edi. Buni etti iqlim munajjimlari ham oldindan karomat qiladilar. Ikki sayyoraning Zuxal bilan Mushtariyning yaqinlashuvi davrida o'gil sohibqiron bo'lar ekan. Yulduzlar harakatidagi bu holat har sakkiz yuz yilda

takrorlanar ekan. SHunday peshonasi yorqiragan zotlar Amir Temurga qadar ikkita o'tgan ekan. Bular Iskandar Zulqarnayn va Muhammad payg'ambar.

Amir Temur Muhammad payg'ambardan so'ng sakkiz yuz yil o'tib, uchinchi sohibqiron bo'lib tug'ilgan ekan. Amir Temur ayrim ilmiy manbalarda 1360 yil taxtga chiqqan, deb ko'rsatiladi. XV asrga oid tarixiy asarlarda bunday ta'kidlarga duch kelish mahol. Tarixiy kitoblarda Amir Temurning Movarounnahr taxtini rasman qo'lga olish yili sifatida 1370 yil qayd etiladi va bu muzaffariyat Balxda yuz berganligi aytiladi. Haqiqatda amir Husayn ibn Musallabni engib, qo'li baland kelgan Amir Temur jami akobirlar, qo'shin boshliqlari tomonidan Movarounnahr hukmdori deb tan olingan edi. Binobarin, Amir Temur hozirga qadar aytib kelinganidek, yigirma to'rt-yigirma besh yoshida emas, o'ttiz to'rt-o'ttiz besh yoshida taxtga chiqishga erishgan.

«SHohnoma»dagi aksar shohlar bolalikdan azob-uqubatlarni, ayniqsa, bir necha bor o'lim xavfini boshdan kechiradilar. Bo'lajak sohibqiron esa tug'ilmasdan burunroq etti iqlim sultonlari tomonidan o'limga xukm etiladi. Etti iqlimdan Buxoroga elchi kelib, Bayonqulixon ijozati bilan yaqin orada tug'ilgan bolilarni ko'rikdan o'tkazadilar.

Maqsad — jahonni oluvchi chaqaloq Temurni topish va o'ldirish edi. Lekin chaqaloqni o'ldira olmaydilar. Afsonalar, rivoyatlar asosida yozilgan bu bob juda qiziqarli, ayni vaqtda ishontirarli yo'riqda yozilgan. Ayrim sahifalarda afsonaviylik bosim bo'lsa,

ko'pgina o'rinlarda xaqiqat urug'i xam gurkirab ko'karib turadi. Temur bolalikdan kuchli, jo'raboshi bo'lib o'sadi. Hali amir CHokuning uyida ekanligida Zanjir Sara qudugidan qirq qul suv tortadigan qovg'ani yolgiz o'zi tortadi, odalmlarga suv ulashadi.

Qassobning zil-zambil qanorasini bir barmog'i bilan otib yuboradi. Buni u o'z tengqurlari bilan bahslashib qiladi. Bolalar Abo Muslim kuchli ekanligini kitobdan o'qib bilganmiz deyishadi. Temur uz kuchini namoyish qilishda Abo Muslimni yo'lda qoldiradi. U quduqdan qirq marta suv tortib, charchab uxlab yotganida bir ilon ko'ksiga chiqib. kulcha bo'lib yotadi. SHu daqiqada otasi uni izlab kelib quduk yonida to'xtagan edi. Odamlar yordam berishdan ojiz, salgina qaltis harakat bo'lsa, ilon bolani nobud qilishi mumkin. Odamlar sarosimada turganida Temur uyg'onib qolib, qo'rqmasdan, payt poylab ilonning boshini tishlab uzib tashlaydi. Mayli, bularda ozmi-ko'pmi mubolag'a bo'lsin deylik. Temur bolaligidan yetti yil qo'tir bo'lib, sira qashinmagan ekan Buning uchun temir iroda kerak bo'lgan, albatta.

Bobdan bobga o'tgan sari asar murakkablashadi. SHayx SHams Kulol haqida fikr yurtadigan bo'lsak, Temur bolaligidan bu shayxga ixlos qo'ygan. Hayotining eng og'ir daqiqalarida unga murojat qilgan, maslahat olgan.

SHayx SHams Kulol Amir Temurni mo'gullarga qarshi kurash ruhida tarbiyalagan. Asarda talqin etilgan yana bir shayx samarqandlik Burhoniddin Sohib hidoyat ham kurash maydoniga tushgan Amir Temurga rahnomalik qiladi. Uning oldiga tushib,

muxoliflar bilan g'oyaviy jangga kirishadi. Vatanparvar din arboblari kurash boshida turganligini asar muallifi hamisha xam ochiq tasvirlamaydi. SHunday bo'lsa-da, bu ruh butun asar mazmunidan anglashilib, bo'rtib ko'rinib turadi.

Temur hayot qozonida juda erti qaynay boshlaydi. Asarda o'smir Temurning kurash yo'lida goh Qarshiga, goh Samarqandga qatnab turganligi, beriladi. Amir Temurning Buxoroga borganida uning sarguzashtlari mo'gul xonlarining karorgohida davom etadi. Buxoroga kelgan Temur birinchi kundanoq adolatsizlikni o'z boshida sinab ko'radi. Baroqxonning mujibi ichib, bozorda to'polon qiladi, uning dastidan odamlar zir titraydi. Temurning so'nggi umidi qo'lidagi la'lni ham tortib olib ketadi. Bobo poraduz obrazi g'oyat ibratli. Bu qo'hnado'z cholning xon oldida obro'si katta. U adolat timsoli, abolat oldida no'yonlar ham, qozi, mingboshi, yuzboshilar, hatto podsho ham qo'rqib-qaltirab turadi.

Asarda Temur Bayonqulining kenja qizi Saroy Mulk Xonim bilan tanishadi. Saroy Mulk Xonim - Bibi Xonim «Temurnoma»da Bayonqulixonning qizi sifatida beriladi. Tarixiy manbalarda uning Qarshida hukm surgan amir Qozonxonning kizi bo'lganligini, 1341 yildi Qarshida tug'ilganligini dalolat etadi.

Adip asarlarda kuztilayotgandek, Salohiddin Xoja tarixiy dalillarga erkin yondoshadi. Masalan, O'ljoy Turkon Xonimni Xorazm shohining qizi deb taqdim etadi. Bilamizki, u Husayn ibn Musallabning singlisi. Bunday misollarni yana keltirilgan.

Bayonqulixon o'lgandan so'ng, taxtga uning o'gli Baroqxon

chiqadi. Baroqxonning zolimligini Temur sinagan edi. Taxtga chiqqanining uchinchi kuni u otasining donishmand vaziri Siroj Qamariyni qatlga buyuradi.

O'n ikkinchi dostonga kelib yana bir o'zan ochiladi. Bu bobda shayx Sayyid Otaning Qalmoq yurtlarida olib borgan targibotlari naqlidir. Sayyid Ota — shoir Sayyid Ahmad emasmi degan fikr ko'ngildan kechadi. Ma'lumki, nasl-nasabi jihatdan Sayyid Ahmad Temuriylarga yaqin turadi. U o'z zamonasining yirik shoiri bo'lgan, «Taashshuqnoma» asarining muallifi.

Asarda shoir Sayyid Axmadning shoirlik salohiyatidan ko'ra dini islom yo'lidagi kurashi ko'proq yoritiladi. Sayyid Otani shoir Sayyid Axmad bilan aynan bir kishi deyish to'g'ri bo'lmaydi. XIV — XV asrlarda islom dinini targ'ib etish, uni O'rta Osiyo bo'ylab keng yoyish harakati kuchli bo'lgan. Sayyid Ota islomning ana shunday fidoiy targ'ibotchilari vakili sifatida talqin etilgan.

Mo'g'ul xonlarining o'zboshimchaligi borgan sari haddidan oshdi. Amir Temur Qarshida bo'lganida buni yana o'z boshida sinab ko'radi. Oqtemurxon zo'rlik bilan uning sevimli xotini Saroy Mulk Xonimni tortib oladi. Saroy Mulk Xonim qancha bedodlik hbo'lmasin eriga sodiq qoladi. Saroy Mulk Xonimni qutqazishda qarshilik jo'mard qimorboz Inoq Qimoriy yordamini ayamaydi.

Oddiy so'fining o'gli bo'lgan chapani, mard Inoq umrining oxiriga qadar Amir Temur yonidan bir qadam jilmaydi. Amir Temur Inoq yordamida Oqtemurni o'ldiradi. Bu uning mo'gullardan shaxsiy o'ch olishi edi. Shaxsiy adovat asta-sekin ijtimoiy mazmun kasb

eta boradi. Chunki Buxoroda u minglab bilimli kishilarning ayovsiz qurbon bo'lganligini o'z ko'zi bilan ko'radi.

O'n uchinchi dostonidagi bir ibratli, naql shundank, Qarshiga akasi Oqtemurxon ulgandan so'ng hokim bo'lgan Qizil Temur xun olshi uchun tish qayraydi. U Oqtemurning qotilini topish uchun Qarshi xalqini qilichdan o'tkaza boshlaydi. Muallif Amir Temur siyosiy faoliyati boshlangan davrning boshdan-oyoq sinov yillari bo'lganligini shu voqea tasvirida jonli ko'rsata olgan. Qarshida donishmand SHayx Umar degan kishi yashaydi. Uning ilmi Ja'fardan xabari bor. Qasd qilsa, Oqtemurxonni kim o'ldirgan-ligini aytib bera oladi. Lekin SHayx Umar sotqinlik yo'lini rad etadi. Uning o'g'li otasiga. eligi xoinlik kiladi, sehr ilmi kitobini o'g'irlab. Qizil Temurga olib borib beradi. Yana bir ayol ham Amir Temurning rashk evaziga Oqtemurni o'ldirganligini aytib beradi.

Amir Temur Oqtemur xuni uchun Qarshi xalqi qatl qilmoqchi ekanligini eshitib, Qizil Temur o'rdasiga mardonavor kirib keladi va deydi:«— Ey Qizil Temur, og'angni qotili men — Turag'ay baxodur o'g'li bo'lurman, bu faqirlarda nimang bor?!».

Amir Temur ulg'aygani sari hamfikrlari soni ortib boradi. Bunga u o'zining aql-idroki, mardligi, shijoati, qo'rkmasligi bilan erishadi.

O'n to'qqizinchi bobda Seyistonda bo'lgan voqealar tasvir etiladi. Baroqxon necha bor nomardlik qiladi, ammo Temur baribir uni qo'llab-quvvatlayveradi. Chunki Baroqxon bu o'lkalardagi mo'gullarni quvib chiqarishda vosita mavkeini o'ynashi kerak edi.

SHuning uchun ham Amir Temur uning nodonliklariga, bemavrid

hukmlariga tishini tishiga qo'yib chidaydi. Qo'shin boshliqlari bir safar Amir Temurni Baroqxon o'rniga xon ko'tarish talabini ham qo'yadilar. Amir Temur rad etadi. Amir Temurning harbiy ishdagi bilag'onligi aql bilan jasurlikning uyg'unligida ko'rinadi. U hech kim bo'yniga olmagan ishlarga qo'l uradi: josus bo'lib, muxoliflar o'rdasiga boradi, qo'ishnlar ichiga kiradi. O'zini gung, karga soladi. Puxta tadbirlar ana shunday qaltis yo'llar bilan pishitiladi.

Amir Temur ma'lum nufuzga ega bo'lgach, To'qtemurxonga qarshi kurash tadbirini ko'radi. Yigirma to'rtinchi dostonida jatta sipohining tor-mor etilishi yorqin tasvir etiladi. Shu jangda qo'rqqoqlik qilgan Baroqxonni Amir Temurning o'g'li Jahongir Mirzo qutqazadi. Asarda tasvirlanishicha, Baroqxon Saroy Mulk Xonimning akasi, binobarin. Jahongir Mirzoning tog'asi. Mirzo Jahongir tog'asini o'lim changalidan qutqarganida, oradan vakt kechib, ana shu tog'asi o'zining qotili bo'lishini hayoliga ham keltirmagan edi. Baribir, Seyiston jangdan keyin Baroqxonning obro'si tushib ketadi. uning gapi o'tmaydigan bo'lib qoladi.³

Hatto, u Amir Temurni ham qatlga buyurgan paytlari bo'lgan. Bu hukmni ijro etadigan kishi bo'lmaydi. Xulosa shuki, 60-yillarning oxirlariga kelib, Amir Temur mavqei benihoya darajada oshib ketgan edi. Bu esa uning tez orada hokimiyatni rasmiy ravishda qo'lga olishiga imkon beradi. Amir Temur o'ttiz to'rt-o'ttiz besh yoshida jami amir va beklar timonidan Movaraunnahr hukmdori deb tan olinadi. Hamma unga xizmat qilishga qasamyod qiladi.

³ Salohiddin Toshkandiy. "Temurnoma". –T. "Cho'lpon". 1990 y.

Amir Temur xalqqa bemavrid soliq solishlarga qat'iy qarshi bo'lgan. Uning o'zi keyinchalik xalqini bir necha bor soliqdan ozod qilgan. Hali Baroqxon kuch ustida ekanligida «eldin soluq olurmiz, dedi. Sohibqiron man qildilar, bu yil barcha ellar qashshoqdurlar, elni tarxon qilurmiz, dedi». Baroqxon ko'nmaydi. Amir Temurning o'zi elga tushgan soliqni to'lab yuboradi, hatto, xotinining tilla-kumush ziynatlarini ham qo'shib topshiradi. Baroqxon singlisining ziynatlarini tanisa ham, qaytarib berish, xazinaga oldiradi.

Keyingi dostonlarda Amir Temurning O'rta Osiyoni mo'g'ullardan tozalashi, Dashti Qipchoq, rus mulklari, Ural sari qilingan yurishlar, Eron va Iroqqa, Turkiyaga qo'shin tortishlar o'z navbatini bilan talqin mavzui qilib olinadi. Hindiston yurishi va u bilan bog'liq sarguzashtlar qiziqarli bayon etiladi. Asarning markazida To'xtamish bilan bo'lgan to'qnashuvlar asosiy o'rinni ishg'ol qiladi. Vaqtida Amir Temur huzuriga panox izlab kelib, siylov va rag'batga noil bo'lgan To'xtamish oxir-oqibatda xionat qiladi. To'xtamish bilan bo'lgan mojarolar ildizini asar muallifi ishqiy mezonda talqin etadi. Mirzo Mironshoh To'xtamishning go'zal xotini Sevin Bekani yoqtirib qoladi.

Aqd qilingach, Mironshoh bu husn malikasining To'xtamish xotini ekanligini bilib, qattiq pushaymon his qiladi va yurtiga qaytadi. To'xtamish Sevin Bekani uning izidan Samarqandga jo'natadi. Mironshoh unga yaqinlashmaydi. Falakning gardishi bilan To'xtamish Samarqandga kelib, Oqsaroy qurilishida mehnat qiladi. Amir Temur uni tanib, alohida g'amxo'rlik ko'rsatadi, Sevin Beka bilan

ular yana topiishdilar.

Amir Temur To'xtamishni Dashti Qipchoqqa valiy qilib tayinlaydi. SHu orada AmirTemurning besh yillik, yetti yillik va uch yillik safarlari yuz beradi. Amir Temurning Samarqandda yo'qligidan foydalangan To'xtamish uning mulklarini birin-ketin bosqin qila boshlaydi. Amir Temur xotini Saroy Mulk Xonimga ko'z ola qilish darajasiga qadar boradi. Garchi bu buzuv kirdikor amlgaga oshmagan bo'lsada. keyinchalik Saroy Mulk Xonim bilan Amir Temur munosabatlarida ma'lum o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Buni tarixiy asarlar ham dalolat beradi.

To'xtamish Buxoroni qirq kun qamal qiladi. Amir CHoku u bilan olti oy kurashadi. Bu ishda Saroy Mulk Xonim tadbiri ish beradi. To'xtamish orqaga qaytadi. Biroq u katta o'lja va ko'p asirlar bilan qaytadi. To'xtamishning nomardlarcha qilgan bosqinini safarda eshitgan Amir Temur Xorazm bo'ylab uning yo'lini kesib chiqadi. To'xtamish Amir Temurning bosib kelib qolishidan qo'rqib, qaerda qo'ngan bo'lsa, manzil atrofiga asirga olib kelayotgan xotinlarni, bola-chaqalarni qo'yib, so'ngra orom olishni odat qilgan.

To'xtamish turgan manzilga kelgan Amir Temur Toxtamishga hujum qilmaydi o'z yurtidan olib ketilayotgan fuqorolari bo'lganligi uchun ham u bunday qilmaydi. Tun bo'lganligidan foydilanib, To'xtamish qarorgohiga hujum kilaylik, degan taklifga Amir Temur ko'nmaydi. O'z elidan olib ketilayotgan asiralar oyoq osti bo'liishni istamaydi. To'xtamish, binobarin, mo'gullarni quvishda davom etgan Amir Temur ko'shini ikki yarim yilda o'rus viloyatiga boradilar.

To'xtamish qatl etiladi. O'ruslar mamlakatining poytaxti Moskva ham zabt etiladi. Bungacha knyaz Zolotous ham jangda mag'lub bo'lgan edi. Moskvaning fath etilishi osonlikcha ko'chmagan. Sulton Muhammad, Amir Temurning nabirasi Moskva ostonalariga yetib keladi. Ammo ko'rg'onlari toshdan yasalgan edi. Asarda muallifning aytishicha himoyachilar miltiqlar bilan qurollangan. Shaharning qirq darvozasi bor edi.

Turk qo'shinini zambaraklar bir pastda qiyratib, siyrak qilib qo'yadi. So'ng aql-tadbir bilan ish ko'radilar. Yomg'ir yog'ishini kutadilar.

Asarda bu ham karomat tufay chunki zambaraklar piltasi ivib. Yomg'irda alanga olmaydi. Shahar fath etiladi. Janglar juda kattiq kechadi.

Moskva qo'lga olinadi. Rus yerlarida Amir Temurning yurishi davom etadi. Asarda zikr qilinishicha. Moskva knyazligi to SHohruh vafotiga qadar Temuriylarga boj to'lab turgan. Husayn Boyqora taxtga chiqqan dastlabki yillarida Moskvaga elchilar jo'natganligi ma'lum. Bu qanday maqsadni ko'zda tutganligini, aytish qiyin. Moskvaga jo'natilgan elchilarning taqdiri nomalum, manbalarda bu haqda boshqa ma'lumotlar uchramaydi.

Amir Temurning SHom, Iroqqa yurishlari bir necha dostonga mavzu bo'lgan. Bog'dod amiri Sulton Ahmad hisobsiz qo'shinga ega edi. SHu boisdan ham u Amir Temurga nopisandlik bilan, masxara qilib maktub yo'llaydi: «Ey Amir Temur oqsoq, bilgil xabardor bo'lg'ilkim, meni sulton Ahmad Rustami soniy atarlar, yetti yuz ming

qo'shun birla bu erga kelib tushtum»).

«Temurnoma»ning bir ibratli tomonini alohida ta'kidlash lozim. Qirg'in barot janglarda kurashayotgan ikki tomon uchun ham birdek qon to'kish degan gap edi. Ayniqsa, jang bir dindagi kishilar o'rtasida bo'lsa, bu kechirilmas xatodir. Din ahlining aralashuvi bilan nizo sulhga tuzish yakunladi.

Sulton Ahmad Bag'dodga amir qilib qoldiriladi. Umuman, Amir Temurning yurishlarida bir xususiyat ko'zga yaqqol tashlanib turadiki, u mumkin qadar ishni urushgacha olib bormaslik payidan bo'ladi. Uni yaxshilik bilan qarshi olgan mamlakat hokimlarini o'z o'rnida qoldiradi, ularga muruvvat ko'rsatadi. Aksincha, gapida turmagan, sotqinlik yo'lga kirgan raqiblar bilan til biriktirgan yurt egalarini u ayovsiz jazolagan, badarg'a qilgan. Eng so'nggida oxirgi chorani qo'llagan.

Oxirgi dostonlarda Amir Temurning Sulton Boyazid bilan bo'lgan janglari bayon etiladi. Sulton Boyazid o'g'li Sulton Shabl ni Amir Temur oldiga elchi qilib jo'natadi. Urushmaslik haqida ahdnoma yetib kelayotganda, Sulton Boyazid sabrsizlik qilib, jangni boshlab yuboradi. Salohiddin Toshkandiy shunday deydi: «Qaysar to o'gli borguncha bo'lmay, bir yuz etmish kishini boshliq qilib, alarga vaziri a'zam Temurtoshni amiri askar qilib yubordilar. To'rt son kishi dengiz kabi oshib-toshib yigirma kunda Olato'g' bag'riga yetdilar. Bu gav'olarni dangqini Misr ahli eshittilar»).

Yildirim Boyazid bilan bo'lgan jangda Amir Temurning lashkarboshilari katta jasorat ko'rsatadi. Bag'dod va SHom janglarida

charchagan qo'shinga turk lashkari bilan kurashish juda qimmatga tushadi. Amir Temur turklarga qarshi 200 mingdan ziyod armiyani tashlaydi. Turklar ustidan g'alabalari natijasida Amir Temur butun Kichik Osiyoni egallaydi. Bu jangdan keyin u Samarqandga qaytadi.

Textga chiqqanidan to so'ngi nafasiga qaidar harbu zarbga umrini bog'shlagan Amir Sohibqiron endigi yurishni Xitoyga yo'naltiradi .U O'trorda To'xtaydi, Qish juda qattiq kelganli sababli yurishni to'xtatadi. Salohiddin Toshkandiy shunday deydi:

"Kun sovuq, hukmdor soch oldiradi. Ikki bor zaharlanganida ham omon qolgan Amir Temur qaruvi etgan edi, o'lim bu safar uni omon qo'ymaydi". Buyuk jahongashta Sohibqiron Amir Temurning hayoti shunday tugaydi. U Xitoydan to o'rtayer dengizigacha, shimolda rus davlatlaridan to Arab dengizigacha bo'lgan hududlarni birlashtirgan edi. Butun dunyo olimlari uning nomini Iskandar Zulqarnayn, Chingizxon, Napoleonlar singari buyuk sarkardalarning qatoriga qo'yadilar.

XULOSA

“Temurnoma” mazmuniga ko’ra jangnoma asar. Biroq Salohiddin Xoja ta’kid qilganidek, «bu o’zga jang kitoblaridek emas, chunki munda aqlga dalolat qiladigan hikmat so’zlari ko’bdur». Bu hikmatlardan kelib chiqadigan xulosa bitta: «Temurnoma»ni mutolaa qilgan o’quvchi jangu jadallarning insoniyat uchun mutlaqo keragi yo’qligiga ishonch hosil qiladi. Amir Temur o’z muxoliflarini qancha mag’lub etmasin, baribir, uning qo’shini ham ko’p talofat ko’radi.

Asarning qamravi keng ekanligi haqida yuqorida so’zlandi. Buni yana shundan ham bilsa bo’ladiki, «Temurnoma»da besh yuz dan oshiq kishi nomi tilga olinadi. Bularning ko’pchiligi tarixiy shaxslar, Sharq mifologiyasi orqali bizga tanish sulolalar vakillari. Muallif ayrim tarixiy shaxslarni yashagan davri nuqtai nazaridan yangilash talqin etadi, ayrimlarining ismlarini o’zgartib qo’llaydi.

«Temurnoma»ning tili bir qarashda ancha murakkabdek tuyuladi. Bu hol dastlabki boblarda ayniqsa sezilib turadi. Ammo, umuman olganda, asarning tili, hikoya qilish usuli oddiy va maroqli.

Afsonalardan ijodiy foydalanish, ruhiy olam haqidagi talqin kishini o’ziga jalb etadi.

«Temurnoma» jaxonga taniqli ulug’vor tarixiy shaxsning hayoti misolida kishilarni bir-biriga mehr-oqibatli bo’lishga undaydi. O’tmishda yuz bergan qirg’inlardan saqlanishga, tinchlikning, ofiyatning qadriga etishga da’vat etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. *“Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”*. –T. “Sharq”.
1998 y.
2. I.A.Karimov. *“Bizdan ozod va obod vatan qolsin”*. –T. 2-tom
1996 y.
3. Saloxiddin Toshkandiy. *“Temurnoma”*. –T. “Cho’lpon”
1990 y.
4. Ahmedov B.A. *“O’zbekiston tarixiy manbalari”* . –T. 2001 y.
5. Ahmedov B.A. *“O’zbekiston xalqlari tarixiy manbalari”* .
–T.1991y.
6. Ahmedov B.A. *“Tarixdan saboqlar”* . –T.
7. *O’zbekiston milliy inseklopediyasi*. – Toshkent, 2005 yil
8. WWW.google.uz
9. WWW. Ref.uz

